

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Ss.01.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**AXATJONOV SUNATILLA SOBIRJON O‘G‘LI**

**O‘ZBEKISTONNING IJTIMOYIY-SIYOSIY HAYOTINI  
DEMOKRATLASHTIRISHDA VAKILLIK ORGANLARINING ROLI**

23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (ПЧД) по  
политическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of philosophy (PhD) on political sciences**

**Axatjonov Sunatilla Sobirjon o'g'li**

O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotini demokratlashtirishda vakillik organlarining roli.....

**Axatjonov Sunatilla Sobirjon o'g'li**

Роль представительных органов в демократизации общественно-политической жизни Узбекистана.....

**Axatjonov Sunatilla Sobirjon o'g'li**

The role of representative bodies in the democratization of the social and political life of Uzbekistan .....

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Ss.01.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**AXATJONOV SUNATILLA SOBIRJON O‘G‘LI**

**O‘ZBEKISTONNING IJTIMOYIY-SIYOSIY HAYOTINI  
DEMOKRATLASHTIRISHDA VAKILLIK ORGANLARINING ROLI**

**23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar**

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Ss193 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) O'zbekiston Milliy universiteti veb-sayti ([www.nuu.uz](http://www.nuu.uz)) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portali ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz))da joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich**  
siyosiy fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Jo'raqulov Furqat Noryigitovich**  
siyosiy fanlar doktori, dotsent

**Yakubov Baxtiyor Sultannazirovich**  
siyosiy fanlar doktori

**Yetakchi tashkilot:**

**Farg'ona Davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSs.03/30.12.2019.Ss.01.08 raqamli Ilmiy kengashning "16"-fevral 2023-yil soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 227-12-24; faks: (99871) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz. O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi, 5-qavat, 511-xona).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. O'zMU Ma'muriy binosi, 2-qavat, 4-xona. Tel.: (99871) 246-67-71; faks: (99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2023-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**A.G.Muminov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o'rinbosari, siyosiy fanlar doktori (DSc), professor.

**K.M.Mirzaaxmedov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

**A.G.Muminov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, siyosiy fanlar doktori (DSc), professor.

## **KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonning ko'pgina rivojlangan ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan davlat hokimiyati tizimida rivojlangan proporsional vakolatli parlament g'oyasi va inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etishda parlament nazoratini tadqiq etish masalasi siyosiy-huquqiy hamda ijtimoiy-falsafiy jihatdan ustuvor ahamiyatga egadir. Jamiyatni modernizatsiyalash va rivojlantirishda vakillik organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yish tizimini tahlil etish, ularni takomillashtirish borasidagi konseptual paradigmalarni asoslash va takliflar kiritish ilmiy-nazariy hamda amaliy ahamiyatga molikdir.

Jahonda parlamentarizm g'oyasi demokratiya qadriyatlari, ochiq fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat tushunchalari bilan chambarchas bog'langan. Nazorat vakolatiga ega bo'lgan parlamentsiz mamlakatda haqiqiy demokratiya bo'lmasligi xalq va davlat organlari o'rasidagi muloqotda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Shu sababdan, fuqarolik demokratiyasini kishilar davlatni idora qilishda o'zlari ishtirok etishlarining real imkoniyati bilan bog'laydilar. Bu esa vakillik organlariga saylovlarda partiyalararo sog'lom raqobatni kuchaytirish, siyosiy partiyalarning davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga ta'sirini oshirish, siyosiy partiyalarning saylov jarayonidagi vakolatlarini kengaytirib borish eng muhim masalalardan biri ekanligini anglatadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda xalq manfaatlari asosida faoliyat yuritadigan ikki palatali parlament shakllantirilib, yuqori va quyi palatalar faoliyati institutsional, funksional tizimlashtirildi. Davlat organlari va xalq o'rtasidagi muloqot mexanizmini shakllantirishda "parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisiga aylanib"<sup>1</sup> bormoqda. Ikki palatali parlamentning faoliyatini tizimli takomillashtirishga qaratilgan islohotlarning amalga oshirilishi mamlakatimizda modernizatsiya va fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish yo'lidagi zaruriy faoliyatdir. Mamlakatda vakillik organlari tizimini takomillashtirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unlashgan demokratik siyosiy tizim shakllantirilib, plyuralizm, bahs-munozaralar, sog'lom raqobatga asoslangan siyosiy muhitni vujudga keltirish orqali ijtimoiy adolat va qonun ustuvorligiga erishish, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash va fuqarolik jamiyatini shaffof, qonuniy asoslarda rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Shuningdek, bugungi kunda mamlakatimiz demokratik hayotida mahalliy Kengashlarning o'rni va nufuzi ham, ular faoliyatini takomillashtirishga nisbatan bo'lgan talab ham ortib bormoqda. Ushbu vaziyatda xalq vakillarining quyi darajadagi mahalliy davlat boshqaruvini nazorat qiluvchi mahalliy Kengashlar faoliyati, rivojlanish istiqbollari hamda bu boradagi xorijiy tajribani o'rganish ham har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur Kengashlar faoliyati va bu boradagi xalqaro tajribani ilmiy-amaliy jihatdan o'rganish hamda amaliy xulosalar ishlab chiqishda mazkur tadqiqot ishi malum darajada xizmat

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Т.: «Ўзбекистон» 2017 й. -Б.-33.

qiladi deb o‘ylaymiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2017-yil 8-sentabrdagi PF-5185-sonli “O‘zbekiston Respublikasida Ma‘muriy islohotlar to‘g‘risidagi konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-sentabrdagi PQ-3294-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisidagi vakolatli vakili lavozimini joriy etish to‘g‘risida”gi qarori hamda mavzuga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Dissertatsiyada respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirish qo‘mitasi oldiga qo‘yilgan ustuvor vazifalar, xususan, I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotini demokratlashtirishda vakillik organlarining o‘rni yoki umuman vakillik organlari faoliyatining turli jihatlarini tadqiq etish, vakillik organlarini ijtimoiy-siyosiy jihatdan modernizatsiyalashning nazariyasi va amaliyoti, evolyutsiyasi, istiqbollarni prognozlash, mazkur jarayonni yetakchi davlatlar tajribasi asosida qiyosiy tadqiq etish muammoning o‘rganilganlik darajasiga misol bo‘la oladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlari<sup>2</sup>, xususan, davlat rahbarining tashabbusi bilan ishlab chiqilgan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”, “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” hamda keng ko‘lamli islohotlarni olib borish borasidagi g‘oyalari mazkur tadqiqotga ilmiy-metodologik asos sifatida xizmat qilsa, sohaga oid qonun hujjatlari, Prezident farmonlari, qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar tadqiqotning uslubiy bazasi sifatida xizmat qiladi.

Shuningdek, parlamentarizmning shakllanishi masalasi faylasuf va siyosatchilar ilmiy ijodining asosiy mavzularidan birini tashkil etgan bo‘lib, parlamentarizm shakllanishining ilk kurtaklari, ya’ni jamiyat va davlat masalalari qadimgi yunon faylasuflari Platon, Aristotel asarlarida muhim o‘rin tutgan. G‘arb mutafakkirlari N.Makiavelli, G.Grotskiy, T.Gobbs, J.Lokk, Sh.Monteske, J.Russo, I.Kant, Gegel, D.Jefferson, A.Tokvil, K.Popper, F.Xayek, R.Patiem, N.Berdyayev, S.Gessen, Y.Xabermas<sup>3</sup>larning asarlarida fuqarolik jamiyati va demokratik

<sup>2</sup>Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016; Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017; Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017; Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

<sup>3</sup> Аристотель. Политика // Сочинения в 4 т. – М., 1983. Т. 4. Платон. Государство // Собрание сочинений в 4-х т. Т. 3.

huquqiy davlat qurishning umumfalsafiy, nazariy g'oyalari ilgari surilgan, ularning institutsional va funksional xususiyatlari ochib berilgan.

Sharq mutafakkirlarining ijodida axloq, ma'naviyat, umuminsoniy tenglik, insonparvarlik, ezgulik, mehr-oqibat kabi milliy-madaniy qadriyatlarning demokratik jamiyat hayotidagi ahamiyati kabi masalalar asosiy o'rinni egallaydi. Bunga misol tariqasida Konfutsiy, Mo Shao, Li Gou, Nizomulmulk, Kaykovus, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Forobiy, Ibn Sino, Ahmad Yugnakiy, Amir Temur, Jomiy, Navoiy, Bobur, Ahmad Donish kabilarning asarlarini keltirish mumkin<sup>4</sup>.

Milliy parlamentarizmni shakllantirish va rivojlantirish istiqbollari masalalarining ilmiy-falsafiy hamda siyosiy-huquqiy jihatlarini tadqiq etish, ayniqsa, mustaqillik yillarida jonlandi<sup>4</sup>. Bu borada E.Xalilov, M.Sharifxo'jayev, R.Jumayev, H.Boboyev, A.Saidov, U.Tojixonov, Sh.Paxrutdinov, T.Fayzullayev, H.Odilqoriyev, Z.Islomov, F.Musayev, Sh.Qudratxo'jayev, Sh.Jalilov, M.G'ulomov, A.To'laganov, A.Qodirov, Sh.Mamadaliyev, M.Fayziyev, S.Jo'rayev, M.Mirxamidov, A.Jalolov, L.Tangriyev, M.Qirg'izboyev, L.Boyko, N.Shodiyev, S.Hasanov, O.Husanov, A.Latifov kabi olimlarning asarlari muhim ahamiyatga egadir. Ushbu tadqiqotlarda vakillik organlari faoliyatini tashkil etishda ko'ppartiyaviylik tizimining ilmiy-nazariy asoslari va rivojlanish istiqbollarini tizimli o'rganishga ob'yektiv zarurat mavjudligi asoslangan. Ularning nomlari dissertatsiyaga ilova qilingan foydalanilgan ishlar ro'yxatida berilgan.

Sh.Abbosxo'jayev, O.Jumayev, N.Normatov, M.Mirakulov, R.Xakimov, K.Hamidova va Sh.Yakubovlar siyosiy partiya hamda saylov, siyosiy partiyalarning majoritar, proporsional va aralash saylov tizimlaridagi o'rni, saylovlar jarayonida siyosiy partiyalar faoliyatini moliyalashtirish masalalarini o'rganishgan.

I.Bekov, X.Odilqoriyev, Sh.Qudratxo'jayev, R.Xakimov, A.Yo'ldoshev, M.Yelshov, M.Xasanova, D.Ernazarovlar esa siyosiy partiyalarning parlament va mahalliy kengashlardagi faoliyati bilan bog'liq masalalarni tadqiq etganlar<sup>5</sup>.

Xorijlik va MDH olimlaridan R.Aron – birpartiyaviy tizimning salbiy jihatlarini hamda ko'ppartiyaviylik tizimining afzalliklari, muxolifatning siyosiy mohiyatini; Aleksis de Tokvil – yirik va kichik partiyalarning saylov jarayonidagi

---

<sup>4</sup> Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Т.: Халқ мероси, 1993; Низонулмулк. Сиёсатнома ёки Сияр ул-мулк. – Т.: Адолат, 1997; Темур тузуклари. – Т.: Фафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1991; Бобоев Ғ., Ғофуров З. Ўзбекистонда сиёсий ва маънавий-маърифий таълимотлар тараққиёти. – Т.: Янги аср авлоди, 2001.

<sup>5</sup>Кирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: генезиси, шаклланиши ва ривожланиши. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 46 б.

<sup>5</sup>Беков И.Р. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва сиёсий партиялар. – Тошкент: ТДЮИ, 2010; ОдилқориевХ.Т. Конституция ва фуқаролик жамияти. – Тошкент: Шарқ, 2002; Қудратқўжаев Ш.Т. Ўзбекистонда профессионал парламент тизимининг сиёсий институт сифатида шаклланиши ва ривожланиши истикболлари. – Тошкент: Шарқ, 2007; Хакимов Р.Р. Давлат ҳокимияти тизимида парламент: назария ва амалиёт муаммолари. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Амалдаги қонун ҳужжатлари мониторинги институти нашриёти, 2012; Халқ депутатлари маҳаллий Кенгашларидаги сиёсий партиялар гуруҳлари фаолиятини ташкил этиш. **Методик қўлланма**. | А.Э.Йўлдошев, М.Л.Ельшов, М.Б.Хасанова. – Тошкент: Navro'z, 2014; Эрназаров Д. Депутатлар бирлашмаларининг фуқаролик жамияти ва вакиллик органлари ўртасидаги ўзаро алоқадорликни мустаҳкамлашдаги роли // Фуқаролик жамияти | Гражданское общество | Civil society. 2014. – № 3. – Б. 36-38.

o‘zaro munosabatini, M.Y.Ostrogorskiy – partiyaviy tizimlarning davlat hokimiyati va saylov jarayonlari bilan bog‘liqligini, M.Dyuverje – siyosiy partiyalarning mohiyati, tuzilishi, turlari hamda boshqaruv shakllarini, J.Byurdo, S.Y.Zaslavskiy, V.Y.Chirkin, Y.A.Yudinlar – siyosiy partiyalar faoliyatining ilmiy, sotsiologik va huquqiy masalalarini, K.S.Gadjiyev, J.Sartori, A.Krousson, V.Merkellar ko‘ppartiyaviylik tizimining evolyutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy jaryonlarni modernizatsiyalash bilan bog‘liq muammolarni tadqiq qilganlar.

Shunga qaramay, O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotini demokratlashtirishda vakillik organlarining roliga bag‘ishlangan tadqiqot amalga oshirilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasi va ilmiy tadqiqot markazining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Namangan davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq YA2-OT-0-14679 YA2-15 – “O‘zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini takomillashtirish yo‘nalishlari” mavzusidagi amaliy hamda “O‘zbekistonda milliy demokratik taraqqiyot va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning dolzarb muammolari (2017-2030-yillar)” mavzusidagi ilmiy loyihalari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotini demokratlashtirishda vakillik organlari faoliyatini tadqiq etish, ularning bu boradagi rolini oshirish va rivojlantirish yuzasidan ilmiy xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

mamlakatda parlamentarizm shakllanishining ichki qonuniyatlari hamda o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy tahlil qilish, uning tub mohiyatini ochib berish;

O‘zbekistonda parlamentning shakllanishini tadqiq etish, uning demokratik jarayonlar rivojidadagi tutgan o‘rnini ilmiy jihatdan tahlil qilish va kelgusi faoliyat samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

O‘zbekistonda ikki palatali parlament shakllanish bosqichlarining o‘ziga xos xususiyatlarini ijtimoiy-siyosiy jihatdan asoslash;

zamonaviy parlament tizimini shakllantirish va rivojlantirish borasidagi jahon tajribasini tahlil etish;

mahalliy vakillik organlari faoliyatining huquqiy asoslari va uni takomillashtirish mexanizmlarini ko‘rsatib berish;

mahalliy Kengashlarning tashkiliy tuzilmasi, ishlash mexanizmlari va o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish hamda ularni takomillashtirish yuzasidan takliflarni ilgari surish;

mahalliy Kengash deputatining ijtimoiy-siyosiy, huquqiy maqomini oshirish yuzasidan xulosalar ishlab chiqish;

vakillik organlariga o‘tkaziladigan saylov tizimini tadqiq etish va uni takomillashtirishga doir tavsiyalar tayyorlash;

mamlakat parlamentarizmi rivojida siyosiy partiyalar faoliyatini samarali tashkil etish yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob‘yektini** O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotini

demokratlashtirishda vakillik organlarining rolini oshirish borasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, bu borada qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va vakillik organlarini zamonaviy talablar asosida modernizatsiyalash jarayoni tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmetini** O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotini demokratlashtirishda vakillik organlarining rolini oshirish bilan bog‘liq xalqaro tajribalarni o‘rganish va mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotini demokratlashtirish borasidagi vakillik organlarining faoliyati tashkil qiladi.

**Tadqiqotning metodlari.** Tadqiqotda tarixiy, tizimli tuzilmaviy, institutsional tahlil, siyosiy jarayonlarni modellashtirish, ilmiy manbaalarni kompleks tadqiq etish, statistik ma’lumotlar tahlili singari usullar qo‘llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

mahalliy Kengashlarning faoliyat samaradorligini yanada oshirish maqsadida amaldagi qonun hujjatlariga “mahalliy Kengash deputatining vakolatlarini muddatidan oldin tugatish tartibi” hamda “Kengash rahbariyatiga nomzodlar tarkibi umumiy deputatlarning 10 foizidan ortiq bo‘lmasligi” normasini kiritish O‘zbekistonda vakillik demokratiyasi rivojiga xizmat qilishi asoslangan;

O‘zbekistonda parlament tizimini takomillashtirish va qonunlar legitimligini oshirish borasida hududlarning strategik maqsadlarini, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy holatlarini inobatga olgan holda mahalliy Kengashlarga qonun ijodkorligi tashabbusini berish hamda Toshkent shahar Kengashida o‘zining ijobiy natijasini ko‘rsatgan rahbar kadrlarni lavozimga tasdiqlashda mahalliy Kengash tavsiyasining inobatga olinishi prinsipini amaliyotga tadbiiq etish samarali ekanligi dalillangan;

deputatning o‘zi saylangan siyosiy partiya oldidagi mas’uliyatini yanada oshirish maqsadida, partiya tomonidan okrug saylovchilarining fikrini inobatga olgan holda, o‘z deputatini chaqirib olish hamda uning o‘rniga yangi nomzod ko‘rsatish amaliyotini joriy etish maqsadga muvofiq ekanligi ilmiy asoslab berilgan;

parlament va mahalliy Kengashlarga saylovlarda proporsional saylov tizimini (partiya dasturi va elektorat manfaatlaridan kelib chiqib partiyaga nisbatan ovoz berish) joriy etish siyosiy partiyalarning vakolatlarini, ta’sir kuchini va faoliyat samaradorligining ortishiga, shuningdek, qayta saylovlar uchun budjetdan ajratilayotgan mablag‘larning iqtisod qilinishiga olib kelishi kompleks tahlil asosida isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

Tadqiqotda ilgari surilgan nazariy xulosalar va amaliy takliflardan siyosiy partiyalar, nodavlat-notijorat tashkilotlar hamda jamiyatning turli qatlamlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni rivojlantirishga doir hujjatlarni tayyorlashda foydalanilgan.

Fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasida, davlat idoralarining xalq bilan muloqot jarayonini takomillashtirishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy tadbirlarni ishlab chiqishda uslubiy ko‘rsatma sifatida foydalanilgan.

Xususan, tadqiqot doirasida yozilgan “Parlament va mahalliy Kengashlarda deputatlik so‘rovlari bilan samarali ishlashning usul va vositalari” nomli ilmiy-amaliy qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik

palatasining tegishli qo'mitalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat boshqaruvi akademiyasi, Oliy Majlis huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti, Toshkent davlat yuridik universiteti va boshqa qator nufuzli tashkilotlar vakillari ishtirokida muhokamaga qo'yilib, ijobiy tavsiyalar olingan.

Davlat hokimiyati vakillik organlariga saylovlarda siyosiy partiyalar vakolatlarini yanada kengaytirish amaliyotini rivojlantirishga qaratilgan me'zonlar tizimini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.

Siyosiy partiyalar faoliyatini rivojlantirishda proporsional saylov tizimi imkoniyatlarining keng ekanligi yuzasidan ilmiy xulosalar tayyorlangan.

Shuningdek, tadqiqot doirasida to'plangan nazariy va amaliy ko'nikmalar xalq deputatlari Namangan viloyat Kengashi kotibiyati hamda viloyatdagi barcha tuman va shahar kotibiyatlari ishtirokida tashkil etilgan seminar-treningga asosiy poydevor bo'lib xizmat qildi. Xususan, mahalliy Kengashlarda kotibiyatlar va doimiy komissiyalar faoliyat samaradorligini oshirish borasidagi tavsiyalar hamda umumta'lim maktablarida bo'shab qolgan direktor lavozimlari uchun xalq deputatlari mahalliy Kengashlarida tanlov o'tkazish tartibi to'g'risida biz tomonimizdan tayyorlangan Nizom xalq deputatlari Namangan viloyat Kengashining tegishli qarori asosida viloyat hududidagi mahalliy Kengashlar uchun umumiy foydalanishga tavsiya etilgan.

Tadqiqotning ilmiy-nazariy xulosa va yechimlari Respublika miqyosida o'tkazilgan qator ilmiy-amaliy konferensiyalarda bayon etilgan hamda ilmiy maqola va tezislar shaklida e'lon qilingan.

**Tadqiqot natijalarning ishonchligi** tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, yondashuv uslublari, usullar va ilmiy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, ishonchli dalillardan olingani, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalar hamda jurnallarda chop etilgan maqolalar, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiyada qo'llanilgan nazariy yondashuv va usullarning rasmiy manbaalardan olingani, bunday yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan qo'llanma va u haqidagi retsenziyalar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotini demokratlashtirishda vakillik organlarining rolga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishining natijalari yuzasidan quyidagi tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilgan:

mahalliy Kengashlarnig faoliyat samaradorligini yanada oshirish maqsadida amaldagi qonun hujjatlariga "mahalliy Kengash deputatining vakolatlarini muddatidan oldin tugatish tartibi" hamda "Kengash rahbariyatiga nomzodlar tarkibi umumiy deputatlarning 10 foizidan ortiq bo'lmasligi" normasini kiritish O'zbekistonda vakillik demokratiyasi rivojiga xizmat qilishi borasidagi amaliy

taklif va xulosalaridan Oliy Majlis Senatining Mahalliy Kengashlar faoliyatini kuchaytirishga ko‘maklashuvchi komissiyasi tomonidan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturining 8-bandiga muvofiq ishlab chiqilgan “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari reglamenti to‘g‘risida”gi hamda “Xalq deputatlari Kengashlari nazorati to‘g‘risida”gi qonun loyihalarini takomillashtirishda foydalanilgan (Oliy Majlis Senatining Mahalliy Kengashlar faoliyatini kuchaytirishga ko‘maklashuvchi komissiyasining 2022-yil 21-oktabrdagi 11-04/2732-sonli dalolatnomasi). Natijada, “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari reglamenti to‘g‘risida”gi qonun loyihasida keltirilgan “mahalliy Kengash deputatining vakolatlarini muddatidan oldin tugatish tartibi”ning kiritilishiga asos bo‘lgan;

O‘zbekistonda parlament tizimini takomillashtirish va qonunlar legitimligini oshirish borasida hududlarning strategik maqsadlarini, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy holatlarini inobatga olgan holda mahalliy Kengashlarga qonun ijodkorligi tashabbusini berish hamda Toshkent shahar Kengashida o‘zining ijobiy natijasini ko‘rsatgan rahbar kadrlarni lavozimga tasdiqlashda mahalliy Kengash tavsiyasining inobatga olinishi prinsipini amaliyotga tadbiiq etishning samarali ekanligi yuzasidan bildirilgan xulosalaridan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasining sohaga oid qonunchiligini takomillashtirishda foydalangan (Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasining 2022-yil 12-oktabrdagi №04/10-10-174-sonli dalolatnomasi). Natijada, mahalliy Kengashlarning funksional faoliyatini takomillashtirishda va ularga qonun ijodkorligi tashabbusini berishda huquqiy vosita bo‘lib xizmat qilgan;

tadqiqot ishida keltirilgan deputatning o‘zi saylangan siyosiy partiya oldidagi mas’uliyatini yanada oshirish maqsadida, partiya tomonidan okrug saylovchilarining fikrini inobatga olgan holda, o‘z deputatini chaqirib olish hamda uning o‘rniga yangi nomzod ko‘rsatish amaliyotini joriy etish maqsadga muvofiq ekani ilmiy asoslanganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlardan O‘zbekiston Respublikasi Liberal demokratik partiyasining elektorat manfaatlari yo‘lidagi amaliy faoliyatida foydalangan (O‘zbekiston Respublikasi Liberal demokratik partiyasining 2023-yil 11-yanvardagi 01-27/08-sonli dalolatnomasi). Natijada, partiyadan saylangan deputatlar va partiya deputatlik guruhlarining o‘zaro hamkorlik faoliyatining tizimli yo‘lga qo‘yilishiga asos bo‘lgan;

dissertatsiyaning parlament va mahalliy Kengashlarga saylovlarda proporsional saylov tizimini (partiya dasturi va elektorat manfaatlardan kelib chiqib partiyaga nisbatan ovoz berish) joriy etish siyosiy partiyalarning vakolatlarini, ta’sir kuchini va faoliyat samaradorligining ortishiga, shuningdek, qayta saylovlar uchun budjetdan ajratilayotgan mablag‘larning iqtisod qilinishiga olib kelishi kompleks tahlil asosida isbotlanganligi borasidagi ilmiy takliflaridan O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasining saylovoldi dasturlarini ishlab chiqishda foydalangan (O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy Kengashining

2023-yil 10-yanvardagi 6-19-sonli dalolatnomasi). Natijada, partiyaning qonunchilik organiga tashkiliy kadrlar siyosatini samarali amalga oshirishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola (8 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 146 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan. Tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'yekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, ularning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi "**Vakillik organlari faoliyatini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlangan. Ushbu bobning birinchi "**Kishilik jamiyatida vakillik organlari faoliyatining mohiyati, shakllanishi va rivojlanishiga oid ijtimoiy-siyosiy yondashuvlar**" nomli paragrafida parlamentarizmning dastlabki unsurlarining shakllanish jarayoni masalalarining tahlili o'z aksini topgan. Shuningdek, "parlamentarizm" tushunchasining ijtimoiy-falsafiy mazmuni, parlamentarizm g'oyasining tarixiy-falsafiy ildizlari tahlil qilingan. Xususan, zamon o'zgarishi bilan parlamentning roli ham izchil o'zgarib, uning mohiyati yangi g'oyalar, tamoyillar bilan boyib borgani tarixiylik nuqtai nazaridan asoslab berilgan.

Parlamentarizm g'oyasi hozirda, asosan, politologiya va huquqshunoslik fanlari doirasida ko'p tadqiq etilgan. Tabiiyki, mazkur tushunchaga nisbatan qo'llanilgan nazariy-metodologik yondashuvlar ham siyosiy va huquqiy tahlilga tayangan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, dissertatsiyada parlamentarizm va parlament kabi fenomenlarning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tadqiq etishda tarmoqlararo yondashuv metodidan foydalanish maqsadga muvofiqligi ta'kidlangan. Shundan kelib chiqqan holda, parlamentni o'rganishning tarixiy yondashuvlari qiyosiy, tanqidiy tahlil etilgan.

Parlamentarizmning asosiy xususiyati – bu doimiy faoliyat ko'rsatadigan, ya'ni aksariyat ishi yalpi majlislar, qo'mita va komissiyalar yig'ilishida kechadigan vakillik muassasasining mavjudligidir. Uning yana bir muhim xususiyati faqat

parlamentga xos bo'lgan vakolatlarga ega bo'lishida ko'rinadi. Bunga ko'ra, qonunlarni qabul qilish, davlat budjeti va soliqlarni har tomonlama muhokama qilish va tasdiqlash, tashqi siyosat bilan bog'liq qarorlar qabul qilish, qator davlat organlarini tashkil etish, mansabdor shaxslarni yuqori lavozimlarga tasdiqlash, parlament nazorati funksiyasini bajarish kabilar parlamentarizm faoliyatining xarakterli jihatlari hisoblanadi.

Parlament funksiyasi – bu uning tub mohiyati va xususiyatlarini ifodalovchi faoliyatning mazmuni hamda shaklidir. Mazkur ta'rifdan kelib chiqib, parlamentning uchta funksiyasi mavjudligi ko'rsatiladi: vakillik, qonunchilik va nazorat. Bizningcha, ayrim olimlar tomonidan parlamentning funksiyalari sifatida e'tirof etilgan davlat apparatini shakllantirishda ishtirok etish, tashkiliy, ta'sis etish, mahalliy vakillik organlariga ko'maklashish kabilar parlamentning alohida funksiyalari emas, balki vakillik, qonunchilik va yoki nazorat funksiyalaridan kelib chiqadigan vazifalardir.

Ushbu bobning 2-paragrafi **“Ijtimoiy-siyosiy hayotni demokratlashtirishning nazariy-metodologik masalalari”** deb nomlangan bo'lib, unda demokratiya, demokratlashtirish, O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotini demokratlashtirishning maqsadi, demokratlashtirish bosqichlari kabi masalalar xususida so'z boradi. Ushbu paragrafda O'zbekistonda demokratlashtirish masalasiga yangicha yondashuv aks etgan. Mustaqil O'zbekistonda demokratlashtirish masalalari haqida so'z yuritar ekanmiz, demokratlashtirish bosqichlarini farqlab olishimiz lozim bo'ladi. Tadqiqot ishi doirasida o'rganilgan ma'lumotlarning tahlili asosida mustaqil O'zbekistonda demokratlashtirish davri shartli ravishda muhim ikki (2) yirik davrga bo'linadi degan xulosaga keldik.

**Birinchi davr bu** – 1991-2016-yillar oralig'i, ya'ni ushbu davr O'zbekistonda demokratlashtirishning shakllanish davri bo'lib, bu davrda, asosan, demokratik qadriyatlar shakllanib, mamlakatda demokratik institutlar tashkil topdi va ushbu holat demokratik jarayonlar rivojiga o'z hissasini qo'shdi. Bu davrning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda oliy vakillik organi bo'lmish parlament shakllandi va professional asosda ishlash bosqichiga o'tdi. Bu davrda O'zbekiston parlamenti Oliy Kengash (1990-1994), bir palatali Oliy Majlis (1995-2004) hamda ikki palatali Oliy Majlis (2005 yildan boshlab) bosqichlarini bosib o'tdi.

Shuni tan olish kerakki, ushbu davr O'zbekiston parlamenti uchun muhim shakllanish va rivojlanish davri bo'lsada, mamlakatni demokratlashtirishning, xususan, vakillik organlari faoliyatini takomillashtirishning yakuniy bosqichi bo'la olmadi. Bunga sabab oliy vakillik organi bo'lmish parlamentning o'z xususiyatlari bo'lmish vakillik, qonunchilik hamda nazorat funksiyalarini to'laqonli ravishda bajara olmagan va mahalliy vakillik organlarining hali-xanuz jamoatchilik asosida nomigagina ishlovchi, ijro organi rahbariga qaram organ sifatida qolayotganida edi.

**Ikkinchi davr bu** – 2016-yilning so'nggi choragi – 2017-yil boshidan boshlangan davr bo'lib, O'zbekistonda demokratlashtirishning rivojlanish davridir. Bu davrni mamlakatni demokratlashtirishning “Yangi O'zbekiston davri” deb atadik. Bu davr amaldagi davlat rahbari Shavkat Miromonovichning hokimiyat tepasiga kelishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, mamlakat boshqaruvining dastlabki

davridanoq xalq bilan muloqot maydonining paydo bo'lishi prinsipiga asoslanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda 2017-yilning mamlakatimizda "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" deb elon qilinishi, joylarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq qabulxonalari" hamda "Virtual qabulxona"larning tashkil etilishi mamlakatda inson manfaatlarining, xalq manfaatlarining har narsadan ustuvor ekanligini muqarrar qilib qo'ydi. Davlat o'z siyosatini birinchi galda inson va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib qayta ko'rib chiqish boshladi. Davlat-jamiyat-inson tamoyilining inson-jamiyat-davlat tamoyiliga o'zgarishi yoki boshqacha aytganda "oxirgi o'rindagi insonning" birinchi o'ringa olib chiqilishi mamlakatning insonparvar, xalqparvar davlatga aylanishi borasida ulkan qadam bo'ldi.

Dissertatsiyaning "**Vakillik organlari – O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotini demokratlashtirish drayveri sifatida**" deb nomlangan ikkinchi bobining birinchi paragrafi "**Milliy parlament – jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotini demokratlashtirishning muhim omili**" deb ataladi. Unda milliy parlamentarizmning shakllanish bosqichlari va uning tashkiliy-huquqiy hamda nazariy asoslari davriylashtirib tadqiq etilgan. Milliy parlamentarizmning eng yangi tarixi umume'tirof etilgan uchta asosiy davrga bo'linadi: birinchi davr: 1991-1994-yillar, ikkinchi davr: 1995-2004-yillar va uchinchi davr 2005-yildan hozirgi paytgacha bo'lgan davr. O'zbekiston ikki palatali Oliy Majlisga o'tish davrida qonun yaratuvchilik sohasida katta ishlarni amalga oshirdi va o'zini to'la oqladi. Parlament tomonidan jamiyat hayotining turli sohalariga tegishli bo'lgan qonunlarning qabul qilinishi demokratlashtirishning asosini tashkil etdi. Demokratik jarayonlarning rivojlanishi yangi professional parlamentga o'tish uchun siyosiy sharoit yaratdi, xalqning siyosiy va huquqiy madaniyat darajasi, saviyasi o'sdi. Shubhasiz, professional asosda ishlovchi parlament huquqiy demokratik davlatning bosh shartlaridan biridir.

Shuningdek, ushbu paragrafda "professional parlament" atamasi tahlil qilingan, parlamentning professional tabiatini ham belgilab beruvchi bir qator omillar ajratib ko'rsatilgan. Birinchidan, nafaqat qonun chiqarish funksiyasini bajaradigan, balki hokimiyatlar bo'linishi tamoyilini amalda qo'llash imkonini beradigan, xalq vakilligini haqqoniy amalga oshira oladigan parlamentning "professional parlament" deb atash mumkin. Ikkinchidan, deputatlarning parlament ishida doimiy ishtirok etishi, ya'ni ularning vakolat muddati davomida qonun yaratish bilan bevosita shug'ullanishlari, boshqa turdagi faoliyat bilan shug'ullanmasliklari ham professional parlamentning muhim belgisidir. Uchinchidan, professional parlamentning a'zolari qonunchilik faoliyatining xususiyatlarini yaxshi tushunadigan, bu jarayonning mas'uliyatini his etadigan mutaxassis bo'lishlari lozim.

Ikki palatali tizimga o'tilishi parlament nazoratining rolini ham kuchaytirishga imkon berdi. Palatalar va ularning qo'mitalari majlislarida hukumat vakillari hamda davlat boshqaruv organlari mansabdor shaxslarining o'z faoliyatining turli masalalariga doir axborotlarini eshitish, joylarda qonunlar ijrosi bo'yicha nazorat-tahlil ishlari yakunlarini muhokama qilish amaliyoti ham ijobiy natijalar bermoqda. Ikki palatali parlamentni nomarkazlashtirish, ma'muriy islohotlarning jadallik bilan olib borilishi mamlakat siyosiy

modernizatsiyalashuvining asosini tashkil etdi.

O‘zbekistonda professional parlament tizimining siyosiy institut sifatida shakllanish va rivojlanish istiqbollarini ilmiy tadqiq etishning dolzarbligi qator ob‘yektiv sabablar bilan shartlangan.

Birinchi, O‘zbekistonda ikki palatali parlamentni shakllantirish jarayonlari bu sohada jahon tajribasini o‘rganishni taqozo etadi. Rivojlangan demokratik mamlakatlar, xususan, Garb davlatlari tajribasi misolida ikki palatali parlamentni shakllantirishning tarixiy asoslarini ilmiy tahlil qilish zaruratini tug‘diradi.

Ikkinchi, O‘zbekiston Respublikasida ikki palatali parlament shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish bu jarayonning taraqqiyoti yo‘nalishlarini ko‘ra bilish imkonini beradi hamda bu borada tashkiliy qarorlar qabul qilishda katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi, professional parlament tizimining shakllanishi va rivojlanishida demokratik institutlarning o‘rni hamda rolining tahlil etilishi asosida mamlakatimizda huquqiy davlat qurish sohasida olib borilayotgan islohotlarga ilmiy baho beriladi va O‘zbekistondagi erkinlashtirish jarayonlari uchun puxta nazariy zamin yaratiladi.

To‘rtinchi, O‘zbekistonda shakllantiriladigan ikki palatali parlamentning ish sifati, parlament tomonidan qabul qilinajak qonunlarning mukammalligi xalqimiz tomonidan bu parlamentga kimlarning saylanishiga bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan ikki palatali parlamentga saylovlar jarayonining ilmiy tahlil etilishi va bu jarayonda siyosiy partiyalar rolining o‘rganilishi bu jarayonni takomillashtirishga doir taklif hamda tavsiyalar berish uchun zamin hozirlaydi.

Beshinchi, Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Prezident etib saylanganidan keyin mamlakatda davlat boshqaruv sohalarida ham keskin o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Xususan, Oliy Majlis deputatlari va senatorlarining ham joylarda xalq bilan uchrashib, murojaatlarni tizimli asosda ko‘rib chiqish amaliyoti joriy qilindi. Ushbu jarayonga nisbatan aholining kayfiyati o‘rganiladi. Senator va deputatlarga saylovchilar bilan uchrashuv jarayonida yana nimalarga e‘tibor qilish kerakligi haqida amaliy taklif hamda tavsiyalar berish imkoni tug‘iladi.

Shunday qilib, O‘zbekistonda professional parlament tizimining siyosiy institut sifatida shakllanishi va rivojlanishi istiqbollarini tahlil qilish hamda mazkur masala yuzasidan ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish hozirgi kunda tarixchilar, huquqshunoslar va siyosatchilar oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Parlamentarizm ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida demokratik tuzumga xosdir. Parlamentarizmni xalq suvereniteti tashkiliy shaklining tashqi ifodasi sifatida ham belgilash mumkin. Parlamentarizmni davlat organlari va ijtimoiy tashkilotlar huquqi mustahkamlanib, ular bilan bog‘liq tizim tashkil qilinadi.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi **“O‘zbekistonda vakillik organlari tizimini rivojlantirishda milliy va xorijiy tajriba uyg‘unligi”** sarlavhasi ostida yoritilgan bo‘lib, ushbu paragrafda mamlakatimizda parlamentarizm va mahalliy Kengashlarning rivojlanish tarixi, bugungi kundagi ijtimoiy-siyosiy maqomi va taraqqiyoti haqida fikr bildirilgan bo‘lib, ushbu jarayonlarda qator xorijiy davlatlar

faoliyati tadqiq etilgan hamda milliy tajriba bilan solishtirish orqali amaliy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

G'arb parlamentarizmining asosiy xususiyatlari Sharqda bu boradagi ana'analar bilan qiyosiy tahlil qilingan. Insonlar ongida kaosni yengib, unga qarama-qarshi tartibli dunyoni, koinotni qo'yishga uringanlar va bu tashkiliy dunyo inson omilisiz paydo bo'lmaydi. Bu g'oya asosida asta-sekin G'arb dunyoqarashining ayrim belgilari shakllanadi. Bizningcha, sharqona boshqaruv idoralari va institutlari faoliyatini emas, insonning ma'naviy dunyosini mukammallashtirishni nazarda tutsa, G'arbdagi boshqaruv institutlar tizimlarini, subordinatsiya va ierarxiya aloqalarini, ish yuritish texnologiyalarini takomillashtirish maqsadida ularni tinmay o'zgartirib borishga yo'naltirilgan.

Shuningdek, mazkur paragraf tadqiqoti doirasida qo'shni Qirg'iziston Respublikasining mahalliy Kengashlariga o'rganish safarlari amalga oshirilib mamlakatimizdagi mahalliy vakillik organlari bilan taqqoslash orqali o'rganilgan.

Ushbu bobning 3-paragrafi **“O'zbekistonda vakillik organlari faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishda ko'ppartiyaviylik tizimining o'ziga xos jihatlari”** deb nomlanadi. Unda mamlakatimizda vakillik organlari faoliyatiga siyosiy partiyalarning ta'siri, parlament va mahalliy Kengashlarni demokratlashtirishda siyosiy partiyalarning o'rni tahlil etilgan. Shuningdek, siyosiy partiyalarning kelib chiqish tarixi va ularning rivojidadagi xorijiy tajriba ham atroflicha tadqiq qilingan bo'lib, siyosiy partiyalar rivojidadagi xalqaro qadriyatlar tahlili asosida mamlakatimiz uchun xulosalar ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilardan tashqari, mazkur paragrafda O'zbekiston parlamentini shakllantirishda xalqaro va milliy qonunchilikka amal qilinishi, ko'ppartiyaviylik tizimi mamlakatni rivojlantirishning muhim omili ekanligi ilmiy jihatdan o'rganilgan va tegishli xulosalar ilgari surilgan.

Insoniyatning ko'hna tarixi har bir jamiyat yangi g'oyalardan harakatga kelishi, shu tariqa doimiy yangilanib borishini isbotlab bergan. Jamiyatda xilma-xil g'oyalar mavjudligi uning demokratik boshqaruvga, barqaror muvozanatga ega va yashovchan bo'lishini ta'minlaydi. Jamiyatga yangi g'oyalar kirib kelishida vositalar ko'p. Siyosiy partiyalar yangi g'oyalarni “tashuvchi” muhim vositalardan biridir.

Tarix shundan guvohlik beradiki, partiyalar o'z-o'zicha paydo bo'lmaydi, ular jamiyatning yangi g'oyalarga ehtiyojlariga mos ravishda vujudga keladi. Har qanday partiya va ijtimoiy harakatning paydo bo'lishi, avvalambor, shu yurt hayotida sodir bo'layotgan o'zgarish va yangilanishlar, aholining, ijtimoiy-siyosiy guruh va qatlamlarning xohish-irodasi, intilishlari bilan chambarchas bog'liq. Boshqacha aytganda, har qanday partiya yoki ijtimoiy harakat, birinchi galda, aniq g'oyalar tarafdori, muayyan guruhlar manfaatlarini aniq tasavvur qiladigan, shu qarashlarni oldinga suradigan, himoya qiladigan va hayotga tatbiq etish uchun kurashadigan kuch sifatida maydonga chiqadi<sup>6</sup>.

Bu fikrlar bugun O'zbekistonda o'z dasturiy maqsad-vazifalarini amalga oshirish yo'lida faoliyat yuritayotgan, tarafdorlari ko'p yoki kamligidan, siyosiy platformasidan qat'i nazar, barcha siyosiy partiyalar uchun birdek xos. Ular

<sup>6</sup> <http://islomkarimov.uz/uzc/article/islom-karimov-millij-goya-va-mafkura-konseptsiyasi-asoschisi>

mamlakatimizda fuqarolik jamiyati asoslarini rivojlantirish va ko'ppartiyaviylik tizimini shakllantirish borasida puxta o'ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirilgan islohotlarning mahsulidir.

Saylov kampaniyasi davrida bir necha siyosiy partiyaning o'zaro bahs-munozaraga kirishishi natijasida haqiqat yuzaga chiqadi, saylovchi qaysi partiyaning g'oyasi va nomzodiga ovoz berishini mustaqil tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. AQSh, Kanada, Meksika, Portugaliya, Braziliya, shu jumladan, O'zbekistonda ham davlat vakillik organlariga nomzod ko'rsatish huquqi siyosiy partiyalarga berilgan<sup>7</sup>.

Partiya atamasi lotincha so'zdan ("part", "partis" – "qism" degan ma'noni bildiradi) kelib chiqqaniga qaramay, rimliklarga qadar qadimgi Yunonistonda "partiya"ning ilk ko'rinishlari mavjud bo'lgan. "Partiyalar" hozirgi tushunchasidan farq qilgan holda muayyan bir hudud yoki mintaqadagi aholi guruhlari manfaatlarini ifodalagan. Qadimgi yunon faylasufi Arastu miloddan avvalgi VI asrda Attikadagi dengiz qirg'oqbo'yi va tog'da yashovchi aholining "partiyalari" o'rtasidagi kurashni yozib qoldirgan<sup>8</sup>.

Qadimgi Afinada mavjud bo'lgan geteriyalar singari ba'zi guruhlarni ham o'z davrining "partiyalari" deb atash mumkin. Keyinchalik qadimgi Rimda ma'lum shaxslar yoki konsepsiya (g'oya)lar atrofida aholining muayyan bir qismi – partiyalar to'plana boshlagan. Boshqacha aytganda, zamonaviy partiya mohiyatining ilk negizlari shakllangan. Masalan, aka-uka Graklar partiyasi muayyan bir siyosat, ya'ni yer islohotlari o'tkazilishi tarafdorlari va talabgorlarini o'z atrofida to'plagan.

Shu bilan birga, o'sha davrlarda shakllangan ba'zi uyushmalar keyinchalik zamonaviy ko'rinishdagi ommaviy partiyalarga aylangan. Masalan, Angliyada ilk siyosiy klublar sifatida tashkil etilgan torilar va vigilar XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Konservatorlar va liberallar partiyasi sifatida shakllana borgan. Aytaylik, 1861-yilda tashkil topgan "Angliya Liberal partiyasi" Yevropadagi birinchi ommaviy partiya sifatida tarix sahifalaridan o'rin olgan<sup>9</sup>.

O'zbekistonda ham siyosiy partiya tuzish va ularni ro'yxatga olish jahon tajribalari asosida tashkil etilgan. Siyosiy partiyalarning dasturlari O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirliklari tomonidan ro'yxatga olinadi. Siyosiy partiyalarning dasturlari ro'yxatga olingan kundan boshlab, ular o'z faoliyatini amalga oshira boshlaydi. "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi qonunning 3-moddasida hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasida belgilanganidek, "Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'ligi va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning

---

<sup>7</sup><https://lex.uz/docs/4497111>

<sup>8</sup>Политическая партия. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>.

<sup>9</sup> O'sha manbaa.

hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati ta'qiqlanadi"<sup>10</sup>. Bundan tashqari, maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish ham asosiy qonunimizga binoan ma'n qilinadi.

O'zbekistonda milliy parlament quyi palatasidagi fraksiyalar ko'ppartiyaviylik asosida shakllantiriladi. Shu bois Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar faqat siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o'z navbatida, siyosiy partiyalar fraksiyalarini elektorat, umuman, jamiyat hamda davlat manfaatiga xizmat qiluvchi, strategik ahamiyatga ega, mamlakatning rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqilishini ta'minlovchi qonunlar qabul qilishga undaydi.

O'zbekistonda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish fuqarolar siyosiy madaniyati hamda faolligini oshirib borishda siyosiy partiyalardan siyosiy faollik talab qilinadi.

Mustaqillik yillarida o'zbek parlamentchiligida demokratik standartlarga muvofiq ochiq va erkin saylovlar ko'ppartiyaviylik asosida faoliyat olib bormoqda. Biroq bu yo'lda muayyan murakkabliklar, xato va kamchiliklar ham mavjudligini ta'kidlash joiz. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev: "olib borayotgan islohotlarimizning muvaffaqiyati, avvalambor, siyosiy partiyalarning yetuklik darajasiga, ularning jonajon vatanimiz oldidagi mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qay darajada tayyor ekaniga bevosita bog'liqdir"<sup>11</sup>, deb ta'kidlaydi.

Mamlakatimizda ko'ppartiyaviylik tizimining rivojlanishida "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni alohida o'rin tutadi. Fuqarolik jamiyatining muhim belgilaridan biri siyosiy institutlarda va siyosiy jarayonlarda turli xil fikrlarning erkin ifoda qilinishiga huquqiy asoslar yaratib berish, plyuralistik fikrlashga qobil bo'lgan shaxslarni shakllantirishdir. Shu maqsadlarda qonunning 13-moddasida Oliy Majlisdagi partiya fraksiyalarining erkin faoliyat yuritishlari hozirgi zamon rivojlangan mamlakatlaridagi me'yorlar talablariga muvofiq belgilab berilgan.

Siyosiy partiyaning tashkilot sifatidagi nufuzini ta'minlab berish manbai bu – uning quyi tashkilotlaridagi a'zolarining faolligidir. Partiya a'zolarini faollashtiruvchi omil esa partiyaning amaliy faoliyatida va uning dasturiy hujjatlarida oddiy a'zolarining manfaatleri nechog'lik inobatga olinganligi bilan o'lchanadi. Partiyalarning eng asosiy funksiyalaridan yana biri bu nafaqat o'z a'zolari va tayanch bazasi bo'lgan ijtimoiy qatlamning manfaatlarini ifodalash, balki ularning o'z manfaatlarini anglash darajasiga erishishiga ham ko'maklashishdir.

Dissertatsiyaning **“Mamlakatimizda demokratik islohotlar va parlamentarizmni rivojlantirish: muammo va yechimlar”** deb nomlangan uchinchi bobining birinchi paragrafi **“O'zbekistonda parlament funksiyalarining samarali amalga oshirilishi yuzasidan mavjud vaziyat tahlili”** deb ataladi.

<sup>10</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2019. 57-модда.

